


Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 2365 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,4 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (21,1 %), savdo sohasida (20,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (19,3 %), qurilishda tarmog'ida (18,2 %), yashash va ovqatlanishda (5,3 %), tashish va saqlashda (3,6 %) tashkil etilgan.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




**2018 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha ulushi**



**2018 yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**



**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.**



2016 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,7 birlikda bo'lib, 2017 yilda 12,5 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 13,2 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 2 birlik yuqori.

**2018 yil yanvar-dekabr kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi (% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Qashqadaryo viloyati	21,4	82,7	70,2
Qarshi sh	60,0	83,3	49,7
Shaxrisabz sh	56,3	73,5	90,8
tumanlar			
G'uzor	2,5	74,5	91,0
Dehqonobod	12,0	100,0	98,5
Qamashi	63,8	100,0	98,1
Qarshi	25,5	98,4	96,9
Koson	28,6	50,7	98,1
Kitob	100,0	77,3	95,4
Mirishkor	39,6	100,0	96,5
Muborak	1,6	82,1	63,3
Nishon	5,2	63,2	98,2
Kasbi	27,6	92,9	98,1
Chiroqchi	73,3	100,0	99,7
Shaxrisabz	67,8	100,0	95,8
Yakkabog'	70,2	88,2	97,7

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kitob (100,0 %), Chiroqchi (73,3 %) va Yakkabog' (70,2 %), tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Dehqonobod (100,0 %), Qamashi (100,0 %), Mirishkor (100,0 %), Chiroqchi (100,0 %), va Shaxrisabz (100,0) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Chiroqchi (99,7 %), Dehqonobod (98,5 %), Nishon (98,2) Qamashi Koson Kasbi mos ravishda (98,1 %), tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–dekabrda kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3034,9 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,4 %) yoki 2017 yilning yanvar– dekabrga nisbatan o`shish sur`ati 106,6 %ni tashkil qildi;

– 1725,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 11,3 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 105,2 %ni tashkil qildi;

– 2860,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 82,7 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 110,2 % ni tashkil qildi;

– 4897,9 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 70,2 %), 2017 yilning yanvar–dekabrga nisbatan o`shish sur`ati 104,3 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 85,3 % 7550,4 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 103,5 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 98,8 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 37,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 11,4 mln. AQSh dollariga yoki 113,0 % ga ko`p;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,9 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 83,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 2,9 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 95,3 %) ko`payishi ta`minlandi;

**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan % da)**




2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi sh. (1026,9 mlrd.so'm), Kitob (259,6 mlrd.so'm) va Shahrisabz (212,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqonobod (47,8 mlrd.so'm) va Mirishkor tumanlarda (64,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi sh. (1536,2 mlrd.so'm), Koson (790,8 mlrd.so'm), Chiroqchi (689,7 mlrd.so'm), va Qamashi (566,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Qarshi shahri (1852,3 mlrd.so'm), Koson (364,4 mlrd.so'm) va Shahrisabz (302,9 mlrd.so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil IV - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 74 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 61,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 38,5 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 66,7 % va 20,0 %, xizmatlar sohasida – 46,7 % va 40,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 37,5 % va 43,8 %, sanoatda – 53,3 % va 40,0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 6,7 %, qurilishda – 0,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 18,7 %, xizmatlarda – 13,3 % va savdoda – 13,3 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 80,0 % sanoat korxonalari, 86,7 % – savdo, 86,7 % – xizmatlar, 56,3 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 84,6 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.